



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

616.9-036.3

QON ORQALI YUQADIGAN INFEKSIYALARNI OLDINI OLISH



Matyoqubov Doston Bazarbayevich

Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena kafedrası assistenti, Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch sh., O'zbekiston

dostonbekmatekubov@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-0897-3797>

Tel:(91)436 88 37

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblangan qon orqali yuquvchi (gemokontakt) infeksiyalarning global va milliy miqyosdagi epidemiologik holati keng qamrovli tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Gepatit B, C va OIV infeksiyalarining tarqalish dinamikasi, viruslarning tashqi muhit omillariga nisbatan biologik chidamliligi hamda ularning virulentlik xususiyatlari qiyosiy o'rganilgan.

Maqolada O'zbekiston Respublikasining amaldagi sanitariya-epidemiologik me'yorlari va qoidalari asosida tibbiyot muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya jarayonlarining samaradorligi, shuningdek, invaziv muolajalar davrida parenteral yuqish zanjirini uzish mexanizmlari ilmiy asoslab beriladi.

Tadqiqotning amaliy qismida laboratoriya diagnostikasining zamonaviy usullari, xususan, PZR (polimeraza zanjirli reaksiya) va skrining tahlillarining erta tashxis qo'yishdagi o'rni yoritilgan. Yakuniy xulosalar tibbiyot xodimlari o'rtasida kasbiy xavfsizlikni ta'minlash, davolash-profilaktika muassasalarida aseptika qoidalariga rioya qilish va aholi o'rtasida gemokontakt infeksiyalar profilaktikasi bo'yicha xavfsizlik madaniyatini tizimli oshirishga qaratilgan amaliy takliflarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Gepatit B, Gepatit C, OIV/OITS, parenteral yuquvchi kasalliklar, virulentlik, dezinfeksiya, sterilizatsiya, PZR, skrining, epidemiologik nazorat.

ПРОФИЛАКТИКА ИНФЕКЦИЙ, ПЕРЕДАЮЩИХСЯ ЧЕРЕЗ КРОВЬ

Матьякубов Д.Б.

Ургенчский государственный медицинский институт, г. Ургенч, Узбекистан

Аннотация: В данной статье проводится всесторонний анализ эпидемиологического состояния инфекций, передающихся через кровь (гемоконтактных), на глобальном и национальном уровнях, что является одной из самых актуальных проблем современной медицины. В ходе исследования сравнительно изучены динамика распространения инфекций гепатита В, С и ВИЧ, биологическая устойчивость вирусов к факторам внешней среды и их вирулентные свойства.

На основе действующих санитарно-эпидемиологических норм и правил Республики Узбекистан научно обоснована эффективность процессов дезинфекции и стерилизации в



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

медицинских учреждениях, а также механизмы разрыва цепи парентеральной передачи при инвазивных процедурах.

В практической части исследования освещена роль современных методов лабораторной диагностики, в частности ПЦР (полимеразной цепной реакции) и скрининговых анализов в ранней диагностике. Заключительные выводы включают практические предложения, направленные на обеспечение профессиональной безопасности медицинских работников, соблюдение правил асептики в лечебно-профилактических учреждениях и системное повышение культуры безопасности по профилактике гемоконтактных инфекций среди населения.

Ключевые слова: Гепатит В, Гепатит С, ВИЧ/СПИД, парентеральные инфекции, вирулентность, дезинфекция, стерилизация, ПЦР, скрининг, эпидемиологический надзор.

PREVENTION OF BLOOD-BORNE INFECTIONS

Matyoqubov D.B.

Urgench State Medical Institute, Urgench, Uzbekistan.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the global and national epidemiological status of bloodborne (hemocontact) infections, which is considered one of the most pressing issues in modern medicine. The study comparatively examines the spread dynamics of Hepatitis B, C, and HIV infections, the biological resistance of viruses to environmental factors, and their virulence characteristics.

Based on the current sanitary-epidemiological norms and regulations of the Republic of Uzbekistan, the effectiveness of disinfection and sterilization processes in medical institutions, as well as the mechanisms for breaking the parenteral transmission chain during invasive procedures, are scientifically substantiated.

The practical part of the research highlights the role of modern laboratory diagnostic methods, particularly PCR (polymerase chain reaction) and screening tests, in early diagnosis. The final conclusions include practical proposals aimed at ensuring occupational safety among medical personnel, adhering to aseptic rules in treatment and prevention facilities, and systematically increasing the safety culture regarding the prevention of hemocontact infections among the population.

Keywords: Hepatitis B, Hepatitis C, HIV/AIDS, parenteral infections, virulence, disinfection, sterilization, PCR, screening, epidemiological surveillance.

Kirish va muammoning dolzarbligi: Qon orqali yuquvchi virusli infeksiyalar nazorat qilinishi qiyin bo'lgan qismini tashkil etadi. Bu infeksiyalarning xavfliligi shundaki, ular uzoq vaqt davomida organizmda hech qanday klinik belgilersiz rivojlanib, jigar sirrozi, gepatotsellyulyar karsinoma yoki immunitetning chuqur inqiroziga olib keladi.

O'zbekiston sharoitida aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlari va xizmat ko'rsatish sohalarining (tibbiyot, estetika) kengayib borishi ham profilaktika choralari muntazam yangilab turishni talab etadi. So'nggi yillarda "maishiy parenteral" yuqish yo'llarining ulushi ortib



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

borayotgani ushbu muammoni faqat tibbiy emas, balki ijtimoiy xavf sifatida baholashga asos bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Maqolani tayyorlashda qiyosiy-tarixiy tahlil, statistik prognozlash va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) 2018–2025-yillarga mo'ljallangan strategik hisobotlari asos qilib olindi.

E.I. Musabayev va boshqalar (2021) o'z tadqiqotlarida virusli hepatitlarning O'zbekistondagi genotipik xilma-xilligini o'rganib, mamlakatimizda asosan Hepatit C ning 1b va 3a genotiplari ustunlik qilishini isbotlaganlar. S.A. Azizov (2019) "Epidemiologiya" asarida parenteral infeksiyalarning yuqish zanjirini uzishda "Oyna davri" (Window period) tushunchasini tahlil qilgan va bu davrda laborator diagnostikaning sezgiriligini oshirish zarurligini ko'rsatib o'tgan.

Asosiy qism: Epidemiologik tahlil va natijalar: Viruslarning biologik va ekologik xususiyatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak gemokontakt infeksiyalar viruslari o'zining tashqi muhitga chidamliligi bilan ajralib turadi. Hepatit B virusi (HBV) dunyodagi eng chidamli viruslardan biri bo'lib, u quritilgan qon tomchisida xona haroratida 7 kundan 10 kungacha o'zining infeksiyonlik xususiyatini saqlab qolishi aniqlangan. Hepatit C (HCV) esa biroz kamroq chidamli bo'lsa-da, nam muhitda (masalan, shprits ichida) bir necha haftagacha yashashi mumkin.

Hepatit B ga qarshi emlash - bu jigar saratoni va sirrozining oldini olishdagi eng asosiy choradir. O'zbekiston milliy emlash kalendariga muvofiq, chaqaloqlar tug'ilganining dastlabki soatlarida birinchi dozani qabul qiladilar. To'liq kurs odatda uchta bosqichdan iborat bo'lib, ular orasidagi muddat bir oy va olti oyni tashkil etadi.

Ushbu vaksina dunyodagi eng xavfsiz profilaktika vositalaridan biri hisoblanadi. Emlashdan so'ng organizmda virusga qarshi o'n yillar davomida saqlanib qoladigan mustahkam himoya qatlami hosil bo'ladi. Tibbiyot xodimlari, qon bilan tez-tez aloqada bo'ladigan shaxslar va oilasida kasallik tashuvchisi bor insonlar uchun bu muolaja ayniqsa muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-243-sonli "Ayrim dolzarb virusli infeksiyalar tarqalishiga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish" to'g'risidagi qarori ijrosi doirasida 2023-yilda Respublika bo'yicha chaqaloqlarni qamrab olish ko'rsatkichi 98,5% ga yetgan.

Statistik ma'lumotlar yillar kesimi bo'yicha quyidagicha:

- 2015 yilda -99,9%
- 2016 yilda -99,9%
- 2017 yilda -99,8%
- 2018 yilda -99,6%
- 2019 yilda -99,3%
- 2020 yilda -98,4% chaqaloqlar hepatit B ga qarshi emlangan.

Hepatit C skriningidan 1,2 milliondan ortiq aholi tekshiruvdan o'tkazildi va ijobiy natija aniqlanganlarning 75% davlat hisobidan dori vositalari bilan ta'minlandi.

OIV profilaktikasi: Respublika OITSga qarshi kurashish markazi ma'lumotlariga ko'ra, vertikal yo'l bilan (onadan bolaga) yuqish ko'rsatkichi 0,2% gacha tushirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda asosiy xavf omillari nodavlat stomatologiya va kosmetologiya sterilizatsiya sifati ustidan nazoratning yetishmasligi. Maishiy xizmat (Sartaroshxonalar) ko'rsatish joylarida ustalararni dezinfeksiya qilishda faqat spirtli salfetkalardan foydalanish (bu HBV ni o'ldirmaydi). Inyeksion narkotik iste'moli.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Muhokama: Sterilizatsiya zamonaviy avtoklavlash (bug'li sterilizatsiya) usuliga to'liq o'tish. O'zbekistonning ko'plab statsionarlarida quruq issiqlik shkaflaridan voz kechilib, 134°C haroratli avtoklavlariga o'tilmoqda.

An'anaviy IFA (immunoferment tahlili) usuli o'rniga PZR (polimeraza zanjirli reaksiyasi) usulidan foydalanish kasallikni virus organizmga tushganidan keyin 1-2 hafta ichida aniqlash imkonini beradi. Bu "oyna davri"ni qisqartirish orqali donorlik qoni xavfsizligini 100% ga yaqinlashtiradi.

Xulosa. Gepatit B ga qarshi faqat chaqaloqlarni emas, balki xavf guruhidagi kattalarni (tibbiyot xodimlari, xizmat ko'rsatish sohasi vakillari) ham ommaviy qayta emlash zarur. Estetika va kosmetologiya markazlarida sterilizatsiya sifatini tekshiruvchi "Azopiram" va "Fenolftalein" sinamalarini o'tkazish ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish. O'zbekistonda gemokontakt infeksiyalar bilan kasallanganlarning yagona elektron reyestrini takomillashtirish va bu ma'lumotlarni xususiy klinika laboratoriyalari bilan integratsiya qilish. Aholi o'rtasida "bir marta ishlatiladigan vositalar — salomatlik garovi" tamoyilini targ'ib qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Qonuni: "Odam immun tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida" (Yangi tahrir).
- 2.PQ-243-sonli Qaror: "2022–2025-yillarda aholi o'rtasida virusli hepatit B va C turlarini tarqalishini kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" (16.05.2022).
- 3.Musabaev E.I. "Klinik gepatologiya" (Toshkent, 2021).
- 4.Jabborov R.A. "Epidemiologik nazorat asoslari" (O'quv qo'llanma, 2022).
- 5.JSST Hisoboti (2024): "Global Hepatitis Report: Towards elimination by 2030".
- 6.Azizov Yu.S. "Epidemiologiya" darsligi (Toshkent, 2019).